



UDK:146.9(634.1)

Uljalg'as ABDULLAYEVA,

O'qituvchi, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq, O'zbekiston

E-mail: uljalgas.abdullayeva@mail.ru, ORCID: 0009-0005-8155-4674

GulDU dotsenti, PhD G.Isayeva taqrizi asosida

BOSHLANGICH SINIF DARSLARINI KREATIV TA'LIM MUHITI ASOSIDA TASHKIL QILISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada ta'limdagi yangi texnologiyalar, sunniy intellekt, glaballashuv va raqamlashtirish jarayonlarini mehnat bozorining doimiy ravishda o'zgartirib borayotgan bir paytda, yaratuvchanlik, yangilikka intilish va kreativlikning ustvor bo'lishini taqozo etmoqda. Bu esa kelajak avlod uchun tizimli bilimning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. O'quvchilarning kreativ fikrlash, kreativ bo'lish va kreativ muhit yaratish kabi qator ehtiyojlar shaxsning nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy tezkor o'zgarishlarga moslashishiga, balki ushbu o'zgarishlarning faol yaratuvchisiga aylanishiga ham imkon beradi. Ta'lim tizimida til ta'limi o'quvchilarda to'rt asosiy ko'nikma – o'qib tushunish, tinglab tushunish, yozma va og'zaki nutqni rivojlantirishga yo'naltirilgan holda tashkil etilmoqda. Shu nuqtai nazardan, o'qish savodxonligi faqat matnni o'qish va harflarni tanish bilan cheklanmay, balki o'qilgan ma'lumotni anglash, tahlil qilish, unga tanqidiy munosabat bildirish hamda amaliy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmasini ham o'z ichiga oladi. Bu esa o'quvchilarning keyingi ta'lim bosqichlarida muvaffaqiyatli o'zlashtirishining muhim omili hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Kreativlik, kreativ ta'lim muhiti, boshlang'ich ta'lim, muammoli ta'lim, divergent fikrlash, interfaol metodlar, ta'lim muhiti.

ФОРМИРОВАНИЕ КРЕАТИВНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ И ЗНАЧЕНИЕ УЧЕБНЫХ МАТЕРИАЛОВ

Аннотация

В данной статье в условиях стремительного развития новых образовательных технологий, искусственного интеллекта, глобализации и процессов цифровизации, которые постоянно трансформируют рынок труда, подчеркивается приоритетность креативности, стремления к новизне и творческого мышления. Это становится важной составляющей системных знаний для будущего поколения. Потребности учащихся в развитии креативного мышления, креативности и создании креативной образовательной среды позволяют личности не только адаптироваться к быстрым социально-экономическим изменениям, но и становиться активным участником и создателем этих изменений.

В системе образования языковое обучение направлено на развитие у учащихся четырех основных навыков — чтения с пониманием, аудирования, письменной и устной речи. С этой точки зрения читательская грамотность не ограничивается простым чтением текста и распознаванием букв, а включает понимание, анализ прочитанного материала, критическое отношение к нему и применение в практических ситуациях. Это является важным фактором успешного освоения последующих этапов обучения.

Ключевые слова: Креативность, креативная образовательная среда, начальное образование, проблемное обучение, дивергентное мышление, интерактивные методы, образовательная среда.

IMPROVING THE METHODOLOGY OF ORGANIZING PRIMARY GRADE LESSONS ON THE BASIS OF A CREATIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT

Annotation

This article emphasizes that in the context of rapidly developing new educational technologies, artificial intelligence, globalization, and digitalization processes, which are continuously transforming the labor market, creativity, innovation, and creative thinking are becoming increasingly important. These qualities are becoming an essential component of systematic knowledge for the future generation. The needs of students to develop creative thinking, creativity, and a creative learning environment enable individuals not only to adapt to rapid socio-economic changes but also to become active creators of these changes. In the education system, language learning is aimed at developing four main skills in students — reading comprehension, listening comprehension, written speech, and oral communication. From this perspective, reading literacy is not limited to reading texts and recognizing letters; it also includes understanding, analyzing the information read, developing a critical attitude toward it, and applying it in practical situations. This is an important factor for successful learning in subsequent stages of education.

Key words: Creativity, creative learning environment, primary education, problem-based learning, divergent thinking, interactive methods, educational environment.

Kirish. XXI asrning global ta'lim tendentsiyalari mamlakatimizda jadal rivojlanish va ma'naviy yangilanishni amalga oshirishda ta'lim sohasiga yangi sur'at olib kirdi. Bugungi kunda ta'limdagi yangi texnologiyalar, sunniy

intellekt, glaballashuv va raqamlashtirish jarayonlarini mehnat bozorining doimiy ravishda o'zgartirib borayotgan bir paytda, yaratuvchanlik, yangilikka intilish va kreativlikning ustvor bo'lishini taqozo etmoqda. Bu esa kelajak avlod uchun tizimli

bilimning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. O'quvchilarning kreativ fikrlash, kreativ bo'lish va kreativ muhit yaratish kabi qator ehtiyojlar shaxsning nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy tezkor o'zgarishlarga moslashishiga, balki ushbu o'zgarishlarning faol yaratuvchisiga aylanishiga ham imkon beradi. Ta'lim tizimida til ta'limi o'quvchilarda to'rt asosiy ko'nikma — o'qib tushunish, tinglab tushunish, yozma va og'zaki nutqni rivojlantirishga yo'naltirilgan holda tashkil etilmoqda. Shu nuqtai nazardan, o'qish savodxonligi faqat matnni o'qish va harflarni tanish bilan cheklanmay, balki o'qilgan ma'lumotni anglash, tahlil qilish, unga tanqidiy munosabat bildirish hamda amaliy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmasini ham o'z ichiga oladi. Bu esa o'quvchilarning keyingi ta'lim bosqichlarida muvaffaqiyatli o'zlashtirishining muhim omili hisoblanadi.

Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, Amerika Qo'shma Shtatlari, Finlandiya, Germaniya, Janubiy Koreya va Yaponiya kabi rivojlangan davlatlarda boshlang'ich ta'lim jarayoni kreativ ta'lim muhiti asosida tashkil etilib, interaktiv metodlar, muammoli ta'lim, loyihaviy faoliyat va kommunikativ topshiriqlar keng qo'llaniladi. Natijada o'quvchilar nafaqat matnni tushunish, balki mustaqil fikr bildirish, dalillash va ijodiy yondashish ko'nikmalarini ham egallaydilar.

Kreativ ta'lim muhiti — bu o'quvchilarning erkin fikrlashi, mustaqil qaror qabul qilishi, ijodiy yondashuvi va faol

1-jadval

Ta'lim muhitining funksiyalari	Funksiyaning mazmuni
Rivojlantirish	Ta'lim muhiti har bir fan va umuman muassasaning salohiyatini ro'yobga chiqarishga hissa qo'shadi; kasbiy va shaxsiy rivojlanishga yordam beradi; o'quvchiga o'z rivojlanishining subyekti bo'lish qobiliyatini egallashga yordam beradi.
Qadriyatlarni aniqlash	Ta'lim muhiti shaxs tomonidan mavjudlikni idrok etish uchun umumiy qadriyat-semantik kontekstni rivojlantirishga hissa qo'shadi.
Tartibga solish	Ta'lim muhiti hayotni tashkil etishning umumiy normalari va qoidalari asosida subyektlarning harakatlarini tartibga solish imkonini beradi.
Xavfsizlik	Ta'lim muhiti bola uchun o'z makonida xavfsiz va qulay sharoitlar yaratadi; u subyektlarni buzg'unchi tendentsiyalardan himoya qilish mexanizmi bilan aylanadi.
Yengillashtiruvchi o'zaro ta'sir	Ta'lim muhiti o'z subyektlarining qadriyatlari va manfaatlarining uyg'unligini belgilaydi; tashkilot ichida va tashqarisida subyektlarning o'zaro ta'sirini osonlashtiradi.


Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kreativ ta'lim muhiti muammosi ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan o'rganilgan. Xususan, Guilford kreativlikni divergent fikrlash orqali izohlab, insonning bir muammoni turli yo'llar bilan hal qilish qobiliyatini asoslab bergan [1]. Amabile o'z tadqiqotlarida kreativlikning rivojlanishida ijtimoiy muhit va motivatsiyaning o'rni muhim ekanligini ta'kidlaydi [4]. Stenberg esa kreativlikni rivojlantirishda innovatsion ta'lim metodlarining ahamiyatini asoslab bergan [3]. Vygotskiy esa o'quvchilarning tafakkur rivojida ijtimoiy muhit va o'qituvchi bilan hamkorlik muhim o'rin tutishini ilmiy asoslab bergan [2].

ishtirokini ta'minlaydigan pedagogik sharoitlar tizimi bo'lib, u ta'lim jarayonida innovatsion metod va texnologiyalarni qo'llash orqali o'quv faoliyatini faollashtiradi. Bunday muhitda darslar an'anaviy yondashuvdan farqli ravishda aqliy hujum, klaster, insert, rol o'yinlari, muammoli vaziyatlar va interaktiv topshiriqlar asosida tashkil etiladi. Bu esa boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga mos holda ularning bilish faolligini oshiradi.

Shu o'rinda, funksional savodxonlik tushunchasi zamonaviy ta'lim jarayonida muhim o'rin tutadi, o'quvchilarning hayotiy vaziyatlarda o'z bilim va ko'nikmalarini qo'llay olish qobiliyatini ifodalaydi. O'qish savodxonligi esa ushbu jarayonning asosiy tarkibiy qismi bo'lib, u nutqiy va aqliy faoliyatning uzviy uyg'unlashuvi natijasida shakllanadi.

Maqolada asosiy tushunchalari "atrof-muhit", "ta'lim muhiti", "ijodiy", "ijodkorlik", "kreativ ta'lim muhiti", "boshlang'ich sinflarda kreativ ta'lim muhitini shakllantirish" tushunchalaridir. Shuning uchun, o'rganilayotgan tushunchalar va kategoriyalarning rivojlanish holatini, tadqiqotni ko'rib chiqish va tahlil qilish taklif etiladi. Tadqiqot ishidagi har bir tushuncha yoki kategoriyaning, asosiy tushunchalarning ma'nosini tavsiflashda kreativ ta'lim muhitini shakllantirishning nazariy jihatlarini har tomonlama tahlil qilish mumkin bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarda kreativ ta'lim muhitini yaratish masalasi bo'yicha bir qator tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu muhit o'quvchilarni faol kognitiv faoliyatga jalb qilish orqali ularning o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini rag'batlantiradi. Ta'lim ma'lumotlarini noan'anaviy shakllarda taqdim etish, turli xil faoliyat shakllaridan (o'yin, ijodiy, kommunikativ va boshqalar) foydalanish, ijodiy elementlardan foydalanish o'quvchilarda o'rganishga doimiy qiziqishni shakllantiradi. Shu asosda ta'lim jarayonining sub'ektlari passiv tinglovchilardan faol ishtirokchilarga aylanadi. Bu ularning ta'lim sifati va ta'lim natijalarini oshirishning kafolati bo'lishi mumkin.



Bundan tashqari, boshlang'ich sinfda kreativ ta'lim muhiti boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishga hissa qo'shadi. Sinfda jamoaviy faoliyat, o'z g'oyalarini juftlik va guruhlarda muhokama qilish

va himoya qilish o'quvchilar o'rtasida samarali o'zaro ta'sir va muloqot madaniyatini rivojlantirishga yordam beradi.

1-rasm

Kreativ fikrlashning mohiyati. Kreativ fikrlash — bu shaxsning yangi, original g'oyalar yaratish, muammolarga

noodatiy yondashish va samarali yechimlar topish qobiliyatidir. U quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi: yangi g'oyalarni yaratish, muammolarni turli usullar bilan hal qilish, moslashuvchan fikrlash, yangilikka intilish va mustaqil qaror qabul qilish. Kreativ fikrlashning muhim jihatlardan biri divergent fikrlash bo'lib, u o'quvchilarning bir muammoni bir nechta yo'l bilan hal qilish qobiliyatini ifodalaydi.

O'quvchi rivojlanishi uchun eng samarali ta'lim muhiti ta'limning maqsadlari, vazifalari va o'qitish texnologiyasi, shuningdek, o'quvchilarning yosh xususiyatlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikka asoslangan bo'lishi kerak. Ta'lim muhitini shu nuqtai nazardan talqin qilish ta'limning mazmuni va mavzusini yangicha nuqtai nazardan ochib beradi:

- bir tomondan, o'qituvchi fan bo'yicha bilim, ko'nikma va qobiliyatlarni hamkorlik shaklida berishda rivojlanish funksiyasini bajaradi;

- boshqa tomondan, ta'lim o'quvchi va o'qituvchi, o'quvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamjamiyat asosida rivojlanadi va bu hamjamiyatlar o'quvchilarning yosh xususiyatlariga qarab turli muammolarni hal qilish uchun sharoit yaratishi kerak.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda boshlang'ich ta'lim jarayonida kreativ ta'lim muhitini rivojlantirish orqali o'quvchilarning muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni nazariy va amaliy jihatdan o'rganildi. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, anketa so'rovlari hamda metodlardan foydalanildi.

Tadqiqotning nazariy asosini kreativ fikrlash, muammoli ta'lim, interfaol o'qitish texnologiyalari hamda boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuvga oid ilmiy adabiyotlar tashkil etdi. Shu asosda kreativ ta'lim muhitining mazmuni, tarkibiy qismlari va uning o'quvchilarning kognitiv faoliyatiga ta'siri tahlil qilindi.

Tahlil va natija. Boshlang'ich ta'limda kreativ fikrlashni rivojlantirish metodlari. Boshlang'ich ta'lim jarayonida kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun turli metodlardan foydalanish mumkin. Muammoli ta'lim texnologiyasi o'quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantiradi. Bu metodda o'quvchilarga tayyor bilim berilmaydi, balki muammoli vaziyat yaratiladi va ular mustaqil ravishda yechim izlaydilar. Interfaol metodlardan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. "Aqliy hujum", "Klastar", "Insert", "Rol o'ynash" kabi metodlar o'quvchilarning darsdagi faolligini oshiradi va kreativ fikrlashni rivojlantiradi.

"Aqliy hujum" metodi – biror muammo bo'yicha ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadigan usuldir. "Aqliy hujum" usulining yozma va og'zaki shakllari mavjud. Og'zaki shaklida ta'lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta'lim oluvchilarning har biri o'z fikrini og'zaki bildiradi. Ta'lim oluvchilar o'z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga ta'lim oluvchilar o'z javoblarini qog'oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko'rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. "Aqliy hujum" usulining yozma shaklida javoblarni ma'lum belgilari bo'yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu usul to'g'ri va ijobiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi

Klastar metodi - pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, u ta'lim oluvchilarga ixtiyoriy muammo (mavzu)lar yuzasidan erkin, ochiq o'ylash va fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g'oyalarni o'rtasidagi aloqalar fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. Klastar metodi aniq obektga yo'naltirilgan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning ta'lim oluvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o'zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo'lishini ta'minlashga hizmat qiladi [5].

Insert metodi tushunishni kuzatish vositasidir. Insert - bu o'quv jarayonida o'z anglashini faol kuzatish uchun o'quvchilarga imkoniyat beradigan kuchli vositadir, chunki shunday hollar borki, odam matnni oxirigacha o'qib, u yerda nima yozilganligini eslab qolmasligi mumkin.

Rolli o'yinlar metodidan foydalanish o'quvchilarning obrazga kirishi, voqealarni his etishi, qahramon xarakterini ochib berishi orqali matn mazmunini chuqurroq o'zlashtirishga xizmat qiladi. Bu esa interaktiv metodlarning samaradorligini oshirishga zamin yaratadi. Shu sababli o'qish darslarida rolli o'yinlar metodidan foydalanish masalasi ilmiy-metodik jihatdan dolzarb hisoblanadi [6].

Ijodiy topshiriqlar ham muhim o'rin tutadi. Masalan, hikoya tuzish, matnni davom ettirish, rasm asosida fikr bildirish kabi topshiriqlar o'quvchilarning tasavvurini kengaytiradi. Guruhli ishlash orqali o'quvchilar o'zaro fikr almashadi, bu esa ularning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. Bundan tashqari, kreativ ta'lim muhitini yaratish o'quvchilarning erkin fikr bildirishiga imkon beradi va ularning ijodiy salohiyatini oshiradi.

Muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirish. Muammolarni hal qilish ko'nikmasi o'quvchilarning muhim hayotiy kompetensiyalaridan biri hisoblanadi. Bu ko'nikma bosqichma-bosqich shakllantiriladi. Avvalo, o'quvchi muammoni aniqlaydi, so'ng uni tahlil qiladi, turli yechim variantlarini ishlab chiqadi, eng maqbulini tanlaydi va natijani baholaydi. Ushbu jarayon o'quvchilarda mantiqiy, tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi.

O'quvchilarning kreativ fikrlash darajasini aniqlashda ularning g'oyalarining yangiligi, yechimlarning samaradorligi, fikrlashning moslashuvchanligi va mustaqilligi kabi mezonlar hisobga olinadi. Baholashda ijodiy topshiriqlar, kuzatish va tahlil metodlaridan foydalanish samarali hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Kreativ ta'lim muhiti asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning bilim darajasini oshirish bilan birga, ularning mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va o'z fikrini erkin ifodalash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Interfaol metodlardan foydalanilgan darslarda o'quvchilarning faolligi va qiziqishi sezilarli darajada ortadi.

Xulosa qilib aytganda boshlang'ich sinflarda kreativ ta'lim muhiti rivojlantirish va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirish zamonaviy ta'limning muhim yo'nalishlaridan biridir. Bu jarayonni samarali tashkil etish uchun o'qituvchilar innovatsion metodlardan foydalanishlari, o'quvchilar uchun erkin va qulay ta'lim muhitini yaratishlari zarur. Natijada mustaqil fikrlovchi, ijodkor va raqobatbardosh shaxslar shakllanadi.

ADABIYOTLAR

1. Guilford J.P. Creativity: Yesterday, Today and Tomorrow // The Journal of Creative Behavior. – 1967. – Vol. 1, №1. – P. 3–14.
2. Выготский Л.С. Умственное развитие детей в процессе обучения. – Рипол Классик, 2013. – 163 с.
3. Sternberg R.J., Lubart T.I. An Investment Theory of Creativity and Its Development // Human Development. - 1991. - Vol. 34, №1. – P. 1–31.
4. Amabile T. Componential theory of creativity. – Boston: Harvard Business School, 2011. – P. 538-559.
5. Abdullayeva U.T. Boshlang'ich sinflarda kreativ ta'lim muhitini shakllantirish va o'quv materiallarining ahamiyati // Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali, 2026-yil. Aprel, 4(3)-son. 271-273 b. (OAK 13.00.00)
6. Abdullayeva U.T. Boshlang'ich sinflarda kreativ ta'lim muhitini zamonaviy texnologiyalar asosida shakllantirish // Kasb-hunar ta'limi jurnali, 2026-yil. 2 -son. Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma'rifiy jurnal. 101-104 b. (13.00.00; №19).
7. Abdullayeva U.T. The Role of Modern Pedagogical Technologies in Creating A Creative Learning Environment // European International Journal of Pedagogics (ISSN: 2751-000X), Volume 06, Issue05, May 2026, PAGE: 194-196 p. (OAK 14-baza, ResearchBib)
8. Abdullayeva U.T. Formation of A Creative Educational Environment in Primary Classes and The Importance of Learning Materials // International Journal of Pedagogics (ISSN 2771-2281), Volume 06 Issue 05 May2026, PAGE NO. 375-378 p. (OAK 40-baza, ResearchBib)
9. Abdullayeva U.T. Boshlang'ich sinflarda kreativ ta'lim muhitini shakllantirish va o'quv materiallarining ahamiyati // Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali, 2026-yil. Aprel, 4(3)-son. 271-273 b. (OAK 13.00.00)
10. Abdullayeva U.T. Boshlang'ich sinflarda kreativ ta'lim muhitini zamonaviy texnologiyalar asosida shakllantirish // Kasb-hunar ta'limi jurnali, 2026-yil. 2 -son. Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma'rifiy jurnal. 101-104 b. (13.00.00; №19).
11. Abdullayeva U.T. Boshlang'ich ta'limda kreativ ta'lim muhitini rivojlantirish asosida o'quvchilarning muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirish // Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali, 2026-yil. May, 5(5)-son. 370-372 b. (OAK 13.00.00)